

SHEVALARDA BOG'LOVCHI KO'MAKCHI VA YUKLAMALARNING O'RNI

Murodova Sevinch Abdimo'minovna

Termiz davlat universiteti talabasi

Sevinchmurodova44@gmail.com

Xolova Muyassar

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11086766>

Annotatsiya. O'zbek shevalari boy tillardan biridir. Chunki harbir hudud nuqtai nazaridan turli xil qo'llaniladi. Bu yordamchi so'zlar adabiy tildan uncha farqlanmaydi chunki, fonetik jihatidan farq qiladi. Vazifasi esa so'z brikmalarini va gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Klit so'zlar: Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

THE ROLE OF LINKING AUXILIARIES AND PREPOSITIONS IN DIALECTS

Abstract. Uzbek dialects are one of the richest languages. Because they are used differently from the point of view of each region. These auxiliary words are not very different from the literary language, because they differ phonetically. Its task is to connect words and sentences.

Keys words: Helper, binder, load.

РОЛЬ СВЯЗИ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ И ПРЕДЛОГОВ В ДИАЛЕКТАХ

Аннотация. Узбекские диалекты являются одними из богатейших языков, поскольку в каждом регионе они используются по-разному. Эти вспомогательные слова мало чем отличаются от литературного языка, поскольку различаются фонетически. Его задача – соединять слова и предложения.

Ключевые слова: Помощник, коннектор, загрузка.

Bog'lovchilar va ko'makchilarni M.Turopova sheva materiallari asosida tadqiq etgan. "Shevalardagi bog'lovchilardagi bog'lovchilar o'z xususiyatlari bilan adabiyga yaqin holat.

Fonetik ko'rinishi jihatidan farq qiladi va o'rni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradi"-deydi.

Toshkent viloyati shevalarida adabiy tilda teng bog'lovchi vazifasini bajaruvchi va, ham, hamda, biroq, chunki, garchi, holbuki kabi bog'lovchilar uchramaydi. Shu bilan birga sheva vakillari tomonidan ko'p qo'llanadigan ammo, lekin, biroq teng bog'lovchilari ularni bir vaqtda aytishlari ham kuzatiladi:-Men sizga aytsam, amo lekin biroq hecham ulgurmadim. Bog'lovchilar turli xil chunki, adabiy tilda ham bog'lovchilar hilma xildir.Goh, ganada, -ki, -kimshaklida ham bor.Ganada kelib turadi.

Bog'lovchilarning Buxoro shevasidagi ko'rinishlari. Bog'lovchilar asosiy vazifasi sintaktik qurilish bo'lib, o'zlari bog'lagan ayrim so'zlar va ayrim sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko'rsatadi. Buxoro o'g'uz shevalarida bog'lovchilarni o'rganish jarayonida o'zbek adabiy tildagi ko'rinish orqali tahlil etib guruhlariga ajratish sheva materiallarida unchalik ahamiyat kasbetmaydi. Biz shuni inobat olib "bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil: teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar" –asosida sheva tahlili o'rganiladi. Teng bog'lovchilar. Bu bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni anglatib, to'rt guruhga bo'linadi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari. Bu bog'lovchilar o'zbek adabiy tilida va, hamda, ham, bilan kabi vositalar bilan uyushiq bo'laklar va qo'shma gaplarni bir-biri bilan bog'laydi. Ammo Buxoro o'g'uz shevalarida va, hamda biriktiruv bog'lovchilari sheva vakillari nutqida uchramaydi, uning o'rnida ham, bilan vazifadosh bog'lovchilar ishtirok etadi. . Odatda, shevada uyushiq bo'lakli so'zlarni bog'lash uchun ham, bilä bilän, minän variantlari qo'llansa, qo'shma gaplar so'zlashuvda faol qo'llanmaydi: Enam ham, otam ham dayim qarındaşlarimız minän vordı-geldini üzmädi (Onam ham otam ham doim qarindoshlar bilan bordi-keldini uzmadı). Bāzārdan nak bilä ālma naxalınnan āyırıp āldim (Bozordan nok bilan olma ko'chatidan ayirib oldim). Ertā bāzāra mek bilän hōžāgını çixarıp sātan (Ertaga bozorga sigir bilan buzog'imni chiqarib sotaman). Sen minän mening siz āğzımız senā vārmadı (Sen bilan mening siz og'zimiz senga bormadı) kabi. Shuningdek, ham bog'lovchisi -yam, -yām, -nām, -nam variantlari bilan ham qo'llanadi: Senām, menām royxatda bōr (Senam, menam ro'yxatda bor). Şāyiyam,

2. Ayiruv bog'lovchilari. Buxoro o'g'uz shevalarida qo'llanadigan ayiruv bog'lovchilari adabiy tildan deyarli farq qilmaydi. Shevada yā, yākı, yāvölmäsä, völmäsä, yā-yā, bā:zān-bā:zān, gā-gā, gayi-gayi, bır-bır, dām-dām ayiruv bog'lovchilari sheva vakillari nutqida ishlatiladi. Bu bog'lovchilar uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan ajratish, galma-gallikni ko'rsatish, bir nechta voqeaning ketma-ketligining yuzaga kelishi kabilarni ifodalaydi: Yāışa gırın yādiyqançilik edıp gün görın (Yo ishga kiray, yo dehqonchilik qilib kun kechiray). Bār kırpıç ür, yāmāllara qara (Bor kirpich ur, yo mollarga qara). Şı yıl oqışa gıran, yākı Rassıyāgā işlşā vārān (Shu yil o'qisha kiraman, yoki Rossiyaga ishlash uchun ketaman). Būgın işlarımı görān, keyın yāvölmäsä, bır qışlaya otıp gelāmān (Bugun ishlarimni ko'raman, keyin yo bo'lmasa, qishloqqa bir o'tib kelaman). Bāzāra varıgel, olmasa xemsāyādan pül qarz ālaz (Bozorga borib kel, bo'lmasa qo'shnidan pul qarz olamiz). Meņa bā:zān xāvār qovarattı, bā:zān xāvār qoyvārmıttı (Menga ba'zan xabar qilar edi, bazan xabar qilmasdi). Gā yağmır jayıp şāmāl oladı, gā quyāşçıxıp bā:rın xavāsı oley (Goh yomg'ir yog'ib shamol bo'ladi, goh quyosh chiqib bahorning havosi bo'ladi).

Özim gäyü ötirip öylin, gäyü ötirip xapa olip gidän (O'zim gohi o'tirib o'ylayman, gohi o'tirib xafa bo'lib ketaman). Emirin ğizi bir lävilläp ženžal edadi, bir bečasini älip demmaxut öyina girip gidädi (Amirning qizi bir lovillab janjal qiladi, bir bolasini olib jimgina uyiga kirib ketadi).

Bir özim däm äqat edämän, däm värip yep axdaran (Bir o'zim dam ovqat qilaman, dam borib yer ag'daraman) kabi.

3. Zidlov bog'lovchilari. Buxoro o'g'uz shevalarida ammä, lekin, nekin, balki, -dä, -da zidlov bog'lovchilari o'zbek adabiy tilidagi ko'rinishda ishlatiladi. Ayniqsa, lekin zidlov bog'lovchisi boshqalariga qaraganda nisbatan faol hisoblanadi. Bu bog'lovchilar sodda gaplar va bog'langan qo'shma gaplarda qo'llanib, hodisa, ish-harakat yoki biror narsa tushunchani boshqasiga zid qo'yadi va ular orasidagi qarama-qarshi munosabatni yuzaga keltiradi: Mäšinä zäpçäs älantim, ammäsötüvçi menä eskı, işladilän zäpçäsläri beriptir (Mashinaga ehtiyot qismlaridan olgandim, ammo sotuvchi menga eski, ishlatilgan ehtiyot qismlarni beribdi). Menä birinžini versäläräm, lekin bülärin edän işinnän xapamen (Menga birinchi o'rinni bersalar ham, bularning qilgan ishidan xafaman). Köp döväläniş üçin ukäl-därı äldim, nekin peydäsi olmadı. (Ko'p davolanish uchun ukol-dori oldim, lekin foydasi bo'lmadi). Geja män säliyimi tölädim, bälki äkämkläräm töländir (Kecha men solig'imni to'ladim, balki akamlar ham to'lagandir). Äpam yeznämin şünçäxizmatini etsä-dä, biräm meynätini vilmädi (Opam pochchamning shuncha xizmatini qilsa-da, hech ham mehnatini bilmadi). Naxalim äz qälsa-da, tezraq öja gidämän (Ko'chatim oz qolsa-da, tezroq uyga ketaman) kabi.4.

Inkor bog'lovchilari. Bu bog'lovchilarni nä-nä vazifadosh birliklari (aslida yuklama) orqali hosil qilinadi. Bunda uyushiq bo'lakli gaplar va bog'langan qo'shma gaplarni yuzaga keltirib, ularning kesimi tasdiqni ifodalaydi: Hə bır büyürän işini edädi, nä özinnän vilip bir iş edädi. (Na bir buyurgan ishingni qiladi, na o'zidan bilib bir ish qiladi) kabi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar. Shevada ergashtiruvchi bog'lovchilar adabiy tildagi kabi faol qo'llanmasa-da, ba'zi so'zlashuv jarayonlarida duch kelinadi. Bu bog'lovchilar asosan ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatiladi. Shevada chunki, negäki, sevebi, şünün üçün, täki, şininçin, äğär, diyip (mävädä// naväda, -sa, -sä kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar ishlatiladi:

1. Sabab bog'lovchilari. Shevada sabab bog'lovchilari chunki, sevebi, şünün üçün, şininçin ergash gaplarni bosh gapga bog'lab, sabab-natija ma'nolarini anglatadi: ömrım miynättä ötti, chunki perzentlärim biräva där qälmasin didim (Umrım mehnatda o'tdi, chunki farzandlarım birovga muhtoj bo'lmasin dedim). Gežä işa bärıp bilmädım, sevebi dövlenäm götärıp mazäm bölmedi (Kecha ishga chiqa olmadim, sababi qon bosimim ko'tarilib mazam bo'lmadi). Enä men ši yil

oqisha girişim kerak, şünün için mena oydagi xemma işiettirmänlär (Ona men shu yil o'qishga kirishim kerak, shuning uchun menga uydagi barcha ishni buyurmanglar). Mällara şi yil otim käm yığdım, şününçin yüz ävüş yandaq sätıp äldım (Mollarga shu yil o't kam hozirladim, shuning uchun yuz g'aram yantoq sotib oldim) kabi. 2. Shart bog'lovchilari. Buxoro o'g'uz shevalarida shart bog'lovchilari ägär, ägärdä, māvādā// navāda, -sa, -sä shart va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shuningdek, birga to'siqsizlik ma'nolarini yuzaga keltiradi:

Ägär mällar şünney gidişda köpäsä, iki yildä māşın minän (Agar mollar shunday tarzda ko'paysa, ikki yilda mashina minaman). Ägärdä men bilä öžäşiversä, bütünley işdän gidän (Agarda men bilan o'chakishaversa, butunlay ishdan ketaman). Seni māvādā duxtırda görmänmittim, gözimä tānişdey görünlip ötipilipsin (Seni mabodo kasalxonada ko'rmaganmidim, ko'zinga tanishday ko'rinib o'tiribsan). Ba:r yaxşı olsa, meva-çevayäm zār oladi (Bahor yaxshi kelsa, meva-cheva ham zo'r bo'ladi). Aydän ādamım yānimda qālsa, meyli men xemma işi bāzārän (Aytgan odamim yonimda qolsa, mayli men hamma ishni bajaraman) kabi.

3. O'xshatish bog'lovchilari. Bu bog'lovchilar göjā, göjākī bosh gapda anglatgan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslaydi: Beçəmin baxtinnan yürägim yārılzāq, göjāmennän baxtlī ādam jöy (Bolamning baxtidan yuragim yorilmoqchi, go'yo mendan baxtli odam yo'q). Özinnän zār ādam yoğ, göyākī dünyāni özinçä ovşarda-qovşar etzāqdey görsätäsın (O'zingdan zo'r odam yo'q, go'yoki dunyoni o'zingcha ag'dar-to'ntar qilguday qilib ko'rsatasan) kabi.

4. Aniqlov bog'lovchilari. Bu bog'lovchilar yonıkı, -kı (-gin) aniqlov bog'lovchilari ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, -ki bog'lovchisi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lsa, -kim asl turkiycha bog'lovchi hisoblanadi: Silärä yāniki gäpi aydilar, şūna qarap teyyārgarliklarırı edäverinlär (Sizlarga ya'niki gapni aytdilar, shunga qarab, tayyorgarliklaringni qilaveringlar). Mevälär şündäjkin, qarasan, nesin ādan hasili ālasın (Mevalar shundaykim, parvarish qilsang, nasib qilgan hosilni olasan) kabi.

5. Maqsad bog'lovchisi. Shevada təkı bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosi ifodalangan ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. Maqsadni bildirgan ergash gapning kesimi, odatda, fe'lning buyruq-istak maylida qo'llanadi: Öglım edän yaxşılıqlarınüçin ra:mat, tākı dünyädürinçä dūr (O'g'lim qilgan yaxshiliklaring uchun rahmat, toki dunyo turguncha tur) kabi. Shuningdek, dijip (deb) so'zi bog'lovchi vazifasida kelganda, ergash gaplarning ba'zilarini (shart, maqsad, sabab) bosh gapga bog'laydi: Bügin yāğış yāğey dijip, bāzāra gitmädım (Bugun yomg'ir yog'adi deb, bozorga ketmadim) kabi.

“Bog‘lovchi vazifasidagi deb aniqlik maylidagi fe‘llardan keyin kelsa, aniqlik yoki sabab ma‘nolarini anglatadi. Bog‘lovchi vazifasidagi deb buyruqva istak fe‘llaridan so‘ng kelganda esa maqsad ma‘nosini anglatadi”: Beqalarilim o‘qisha girsin dijjip, on yildän bäri begāna ellärdä işläp yüräptim (Bolalarim o‘qishga kirsin deb, o‘n yildan buyon begona yurtlarda ishlab yuribman) kabi.

Ko‘makchilar. Ko‘makchilar o‘ziga xos xususiyatlari bilan adabiy tildagi (-y) farq qiladi: bilan-manan, marman holatida faol qo‘llanadi - ishlatiladi: kunъ mәнән ыshlōdыy - kun bilan ishladik. Uchun ko‘makchisi shevada yuchun formasida ishlatiladi: meni yuchun ishlāsän ishlāmä - meni uchun ishlama.

säyin - adabiy tildagi kabi: kunsəynъ yaxshi bōlāpti - kun sayin yaxshi bo‘lyapti.

Beri, baqa, bujān, bāshlap, keyin, ilgari, burun, avval, āldin, qarab, qaraganda, qadar, uchun, bilan (bilən, mnām, manan, man, mән, mam, mām) kabi ko‘makchilar shevalarda faol ishlatiladi. Shevalarda modal va taqlid so‘zlar ham qo‘llanadi. Ular adabiy tildagi kabi holatlarda ishlatiladi.

Hozirgacha shevalar morfologiyasining ancha materiallari to‘plab o‘rganilgan. Shu hol ham o‘zbek shevalari morfologiyasini organish ancha bahsli va murakkab ekanligini ko‘rsatib turibdi. Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, xulosa qilinadigan bo‘lsa, hali bu sohada, ya‘ni o‘zbek shevalari morfologiyasida ko‘p ilmiy ishlarni qilish mumkin.

Aytganimizdek ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar hozirgi o‘zbek adabiy tilidagisi bilan fonetik jihatidan farq qiladi. Dealektalogik lahja va shevalarda ularning qo‘llanilishi uslubiyatiga xosdir. Chunki bazi bir hududlarga farqli boshqalariga nisbatan. Ham adabiy til shevadan oziqlanadi, agarda shu holat amalga oshmasa til o‘ladi.

Yuklamalar. Shevalarda qo‘llaniladigan -mi, -chi, -n, -ja, ham yuklamalari shaklida ham bo‘ladi. Ular ma‘no jihatidan adabiy tildagidek ko‘rinishlarga ega bo‘lsa ham, shaklan farqlidir: -a, -ä yuklamasi istak, qistashni ifodalaydi: barasan-a, kesän- a

-či yuklamasi -a, -ä yuklamasiga ma‘no jihatidan yaqin uşaj-či,

-nä, -nä yuklamasi ikki xil so‘roq ma‘nosini ifodalaydi:

a) adabiy tildagi -mi yuklamasi vazifasida keldi: sänäm a:damna, ä:taq ba:zarın kadi na?

b) adabiy tildagi -chi so‘roq yuklamasi vazifasini bajaradi: özin kapsa ,ma:şi:na na? Va shunga o‘xshash .

bo‘g‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalar adabiy bo‘yoqlarni ham beradi. Faqatgina shevada qo‘llanibgina qolmasdan adabiy asarlarda sheva muhitini shakllantirish uchun qo‘llaniladi.

REFERENCES

1. Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O‘zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O‘qituvchi”,1978- yil
2. Mirzayev M M , “O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969 -yil.
3. Ashirboyev S, “O‘zbek dialektologiyasi”Toshkent, 2000 -y / ma’ruza matni/
4. Ashirboyev S, “O‘zbek dialektologiyasi”Toshkent, “ Nodirabegim” , 2021.
5. Rajabov N “O‘zbek shevashunosligi” Toshkent, “O‘qituvchi” 1996 yil.